IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934
VOLUME 6, ISSUE 1, 2023

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIDA ETNOMADANIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART–SHAROITLARI

Isomiddinov Asliddin Baxridin o'g'li

Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti

Anotattsiya: Ushbu maqolamizda oliy ta'limda yaratilgan ta'limiy muhit talabalarda etnomadaniy kompetensiyani shakllantirishda pedagogik sharoitlarni ta'minlash yuqori natijani taminlashni yoritib berdik.

Biz avvalo yoshlarimizning milliy qadryatlarimizni o'rganibgina qolmay, hozirgi kundagi zamonaviy ta'limga uyg'unlashtirib, zamon talabiga mos ravishda egallagan bilim ko'nikma va malakalarini kelgusidagi ish faoliyatlarida ta'limga va tarbiyaga kompetensiyaviy yondashgan holda olib borishi hamda yosh avlodni milliy qadryatlar, urf – odatlarimiz va albatta vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muhim ekanligini ta'kidlab o'tdik.

Kalit so'zlar: Affektiv komponent, etnomadaniyat, etnomologik sifat, identivlik, identiv komponentlar, kompetensiya, kognitiv komponent, malaka, xulq-atvor komponenti,

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ЭТНОКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ ПЕДАГОГИКИ И ПСИХОЛОГИИ

Исомиддинова Аслиддина Бахридин ўғли

Докторант Андижанского государственного университета

Аннотация: В данной статье мы объяснили образовательную среду, которая обеспечивает педагогические условия для формирования этнокультурной компетентности у студентов высших учебных заведений и обеспечивает высокие результаты.

Прежде всего, мы хотим, чтобы наша молодежь не просто изучала наши национальные ценности, а адаптировала их к современному образованию сегодняшнего дня, несла полученные знания, навыки и квалификацию в соответствии с потребностями времени, с компетентным подходом. к образованию и подготовке к будущей трудовой деятельности, а также привитию молодому поколению национальных ценностей. Мы подчеркнули, что важно воспитывать в духе наших традиций и патриотизма.

Ключевые слова: Аффективный компонент, этнокультура, этнологическое качество, идентивлик, идентичные компоненты, компетентность, когнитивный компонент, квалификация, поведенческий компонент,

PEDAGOGICAL CONDITIONS OF FORMATION OF ETHNO-CULTURAL COMPETENCE IN STUDENTS OF PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY

VOLUME 6, ISSUE 1, 2023

Isomiddinov Asliddin Bakhridin o'gli

Andijan State University PhD student

Annotation: In this article we explained the educational environment that provides pedagogical conditions for the formation of ethnocultural competence among students of higher educational institutions and ensures high results.

First of all, we want our youth not only to study our national values, but to adapt them to the modern education of today, to carry the acquired knowledge, skills and qualifications in accordance with the needs of the time, with a competent approach. to education and preparation for future work, as well as instilling national values in the younger generation. We emphasized that it is important to educate in the spirit of our traditions and patriotism.

Key words: Affective component, identity, ethnoculture, competence, cognitive component, behavioral component,

Yangi tahrirdagi bosh qomusimizda “O‘zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e’tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar”deya takidlanandi.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da, “Oliy ta’lim muassasalari faoliyati samaradorligini baholash va takomillashtirish bo‘yicha xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish asosida ularni respublika oliy ta’lim muassasalari sharoitida qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish vazifasi” belgilab qo‘yilgan.

Yangi O‘zbekistonda mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini takomillashtirish jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy taraqqiyoti istiqbolidagi vazifalarni amalga oshirish uchun eng muhim omil hisoblanadi. Bo‘lajak pedagog-psixologlar kelgusida ta’lim muassasalarida psixologik xizmatni olib borishda o‘quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini o‘rganish asosida uning shaxsi har tomonlama kamol topishi, ham ma’naviy, ham aqliy rivojlanishi, o‘zligini anglashi va qobiliyatlarini namoyon etishi uchun tegishli ta’lim-tarbiyaviy hamda ma’naviy-ruhiy sharoitlar yaratishni nazarda tutadi. Bu esa talabalardan har tomonlama yetarli darajada bilim va kompetensiyaga ega bo‘lishni talab qiladi.

Tabiiyki, ko‘p millatli davlatimizda turli yoshdagi fuqarolar va o‘quvchi-yoshlar o‘rtasida mehr-oqibat, bag‘rikenglik, milliy o‘ziga xos ravishda munosabatlar ro‘y beradi. Talabalarda mazkur jarayonlarga samarali yechim topish malakasini shakllantirishning eng optimal yo‘li, ularda etnomadiyatni shakllantirish sanaladi.

Tadqiqotimizning muhim ustuvor konsepsiyasi talabalarda etnomadaniy kompetensiyani shakllantirishning nazariy va metodik asoslari, zamonaviy usul hamda texnologiyalarini aniqlashdan iborat.

VOLUME 6, ISSUE 1, 2023

Avvalo etnomadaniyat tushunchasini tavsiflashni joiz deb bildik. Etnomadaniyat tarixiy jarayon sifatida tarkib topib davrlar mobaynida ma'lum bir yutuq va kamchiliklar o'zida namoyon bo'lgan ijtimoiy fenomen sifatida taraqqiy etib boradi. Etnomologik sifat jihatidan jamiyat ma'naviy-madaniy hayotini avloddan-avlodga yetkazib, uning kelajagi uchun zamin yarata olganligi bilan tavsiflanadi. Talabalar o''tmish madaniyatini ongli ravishda o'zlashtirmasdan turib madaniy merosni jamiyat farovonligi yo'lida qo'llash malakasiga ega bo'lmaydi. Shuningdek, diniy, islomiy merosni chuqur o'rganish, uning milliy ma'naviyat va madaniyatning oliy sifati ekanligini anglash muhim hisoblanadi. Markaziy Osiyo hududi moddiy-ma'naviy madaniyatning shakllanish va taraqqiyot markazi ekanligi ma'lum. Sharqiy xalqlar ma'naviy madaniyatining asosiy tub negizlarini to'laligicha o'rganishrga e'tibor qaratilmoqda.

Etnomadaniyat sifat va tamoyillarni har tomonlama o'rganish va kundalik faoliyatga tadbiq etish maqsadida ajdodlarimizning tarixiy evolutsiya davrlarida qo'lga kiritgan yutuqlarini, xalqimizning madaniy-ma'rifiy merosi, milliy qadriyatlari, urf-odatlari, rasm-rusumlarini, xalqimizning axloq-odob saboqlaridan namunalarni mukammal o'zlashtirish zarur.

Buyuk davlat, buyuk kelajagimizga erishish uchun oqil, ma'rifatli, ayni paytda, o'zining o'tmishini, ulug' qadriyatlari, millati bilan faxrlanadigan va kelajakka ishonadigan komil insonlarni tarbiyalash oliy ta'lim tizimi oldidagi eng ustuvor vazifa sanaladi. Bo'lajak pedagog-kadrlarni tayyorlashda mutaxasislik fanlarining nazariy asosini tashkil etadi va ularni kundalik turmush tarzimiz bilan bog'liq ravishda olib borish maqsadga muvofiq.

Talabalarning milliy madaniyat manbalariga murojat qilishlari orqali milliy ta'lim rivojlanishiga erishiladi. Etnik renessans tendensiyalari zamonaviy etnik paradoks nomini olgan bo'lib, turli shakllarda ifodalanadi, qadimiy an'analar va marosimlarni yuzaga kelish tarixi, bayram va tadbirlarda folklordan foydalanish, milliy an'naviy hunarmandchilikni paydo bo'lishi va milliy davlatchilikni asoslash kabilar.

Oliy ta'limda yaratilgan ta'limiy muhit talabalarda etnomadaniy kompetensiyani samarali shakllantirishda quyidagi pedagogik sharoitlarni ta'minlashni ko'zda tutadi:


- pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan malaka talablarini eng optimal shakl va metodlar orqali bajarish;
- talabalarda etnomadaniy kompetensiyani shakllantirish va ularni yagona maqsad yo'lida birlashtirish;
- ilmiy-tadqiqot ishlari va loyihalar mazmunini etnomadaniy kompetensiyani shakllantirishga yo'naltirish;
- talabalarni milliy qadriyatlar aks etgan tadbirlarda faol ishtirokini qo'llab-quvvatlash, ularga milliy o'zlikni namoyon etishlariga imkon yaratish;
- talabalarni ijtimoiy, etnik, ma'naviy, etnomadaniy kompetentlik darajasini oshirish uchun, turi millat xususiyati bilan tanishtirish hamda ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashish yo'llarini o'rgatish;
- turli millatlarga xos yondashuvni tashkil etish;
- ta'lim mazmunida milliy-hududiy komponent imkoniyatlarini to'la amalga oshirish uchun talabalarni o'z xalqi, mamlakati va jahon madaniyati bilan tanishishga yo'naltirish;

VOLUME 6, ISSUE 1, 2023

- o‘quv jarayoni va audtiroiyadan tashqari faoliyatlarda etnomadaniyatga yo‘naltiruvchi interfaol usul va shakllardan foydalanish;
- talabalarda etnomadaniy tushuncha, bilim darajasini oshirish va ularda millatlararo o‘zaro munosabatlarni yo‘lga qo‘yishga oid ko‘nikma va malakalarni shakllantirish.
- oliy ta’lim muassasasi va oila, milliy markazlar bilan ijtimoiy aloqalarini kengaytirish.

Tadqiqotimizda etnomadaniy identivlik (yakkalik, har bir insonning shaxsiy belgisi yoki xususiyati, kodi) komponentlarini ham aniqlashtirdik.

Ular quyidagi chizmada keltiriladi (1-rasm).



1-rasm. Etnomadaniy identiv komponentlar

Kognitiv komponent-talabaning etnik guruhlarning o‘ziga xos xususiyatlari haqida bilim va tasavvurga egaligi, mazkur etnik guruh a’zosi sifatida o‘zini anglay olishi.

Affektiv komponent-etnik guruhlar xususiyatini tahlil qilish, mazkur etnik guruhning a’zosi sifatida unga bo‘lgan munosabat.

Xulq-atvor komponenti-etnik guruh a’zosi sifatida o‘zini namoyon etish, millatlararo munosabatlarni yaxshilash.

Mazkur komponentlar negizda oliy ta’lim jarayonida milliy-ma’naviy muhit yaratish maqsadga muvofiq bo‘lib, ular muhim pedagogik shartlarga bog‘liq.

Birinchidan, etnik o‘z-o‘zini milliy xususiyati, har bir insonning shaxsiy qarashi va milliy o‘zini anglash millat madaniyatini asrashga harakat qilish.

Ikkinchidan, professor-o‘qituvchilar etnomadaniyatni ilmiy-pedagogik jihatlarini talabalar bilan hamkorlikda ta’lim-tarbiya jarayonida tahlil qilishi.

Uchinchidan, millatlar o‘rtasida yuzaga keladigan, nosog‘lom munosabatni oldini olish, barcha ta’lim turlarida yoshlarga millatlararo bag‘rikenglikni targ‘ib qilish.

To‘rtinchidan, xalqning xayrixoxligi, orzu istaklari, bunyodkor g‘oyalari mamlakatimiz siyosati bilan bevosita bog‘liq. O‘zbekiston fuqarosi sifatida milliy g‘ururni his qilish.

Beshinchidan, jamiyatimiz hayotida millatlararo bag‘rikenglik muhitini mustahkamlash, dunyo hamjamiyatining ijtimoiy-madaniy sohalari bilan ta’lim integratsiyalashuvi haqida ma’lumot berish.

VOLUME 6, ISSUE 1, 2023

Bunda milliy o‘ziga xoslikka ustuvorlik beriladi, talabalarda keng ilmiy dunyoqarash rivojlantiriladi va shaxs sifatida jamiyatning a’zosi ekanligini anglashga o‘rgatiladi.

Oltinchidan, axborotlashgan jamiyatda etnik aloqalar, milliy madaniyat tobora kengayib bormoqda, bu esa o‘sib kelayotgan yosh avlodda bag‘rikenglik va millatlararo munosabatga kirishish ko‘nikmalarnini shakllantirishni talab qiladi.

Xalqimizning turmush tarzi va ma’naviyatining tarkibiy qismini, uning azaliy udumlari, urf-odatlari, marosimu-an’analari tashkil qiladi. Bu esa xalqning ma’naviyati nechog‘lik shakllanganligini, uzoq o‘tmishga ega ekanligini bildiradi. O‘zbek xalqining ma’naviyati boy ekanligi talabalarda milliy iftixor tuyg‘usini yanada yuksaltiradi.

Yuqorida keltirilgan pedagogik shartlar Yangi O‘zbekistonda davlatimizning milliy siyosatini amalga oshirishda, oliy ta’lim muassasalarida talabalarning etnik o‘zligini anglashi, fuqarolik burchi va vatanparvalik tuyg‘usini shakllantirishni ko‘zda tutadi. Talabalarda etnomadaniy kompetensiyani shakllantirish turli etnomadaniyat elementlarini anglash bilan bevosita bog‘liq. Jamiyatda turli millat vakillarini o‘zaro bir-birlarini tushunishi va o‘zaro harakatlari, tolerant munosabatlar, hamkorlik aloqalari, iqtisodiy, ijtimoiy, ta’limiy va madaniy sohadagi muammolarni hal etish malakasiga ega bo‘lish muhim sanaladi. Ko‘pmillatlilik omili madaniyatni shakllantirishning dastlabki sharti hisoblanadi, millatlararo muloqot talabalarni tarbiyalash omili sifatida bevosita pedagogik instrumentga bog‘liq. Oliy ta’lim jarayonida nafaqat etnomadaniy tushunchalarga balki, turli xalq va mamlakatlarning tarixi, madaniyati, turmush tarzi, urf-odat va an’analari, millatlararo munosabatni tashkil etish usullari qo‘llaniladi. Natijada talabalarda bag‘rikenglik rivojlanadi va millat madaniyatiga hurmat hissi tobora ortadi.

Mazkur muammo bo‘yicha qator olimlar va tadqiqotchilar izlanishlar olib borgan. **M.Sobirova** fikricha “O‘zbekiston xududidagi dehqonchilik va dehqonchilik madaniyati tarixi, sug‘orma dehqonchilikning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari hamda u bilan bog‘liq bo‘lgan urbanistik jarayonlar doimo dolzarb muammolardan hisoblangan. Inchunun, Vatanimiz xududidagi eng qadimgi dehqonchilik madaniyati tarixi, dehqonchilik marosimlari va ularning genezisini tadqiq qilish o‘tmish ajdodlarimizning turmush-tarzini o‘rganishda, tarixiy jarayonlarni isloh qilishda hamda xalqimizning qadimgi davlatchilik an’analari va mintaqadagi qadimgi davrda yashagan xalqlarning xo‘jalik yuritish an’analari va diniy e’tiqodlari tizimini ilmiy-asosli tarzda o‘rganishda muhim ahamiyatga ega”[6, 47-bet].


Mana shunday tarzda ta’lim-tarbiyaga yondashilsa, ijtimoiy muhitda millatlarning o‘zaro birligi ta’minlanadi. Shunday ekan, pedagogika fani oldida shaxsda yuqori darajadagi etnomadaniy kompetentlikni shakllantirish vazifasi turadi. Shu sababdan biz tadqiqotimizda aynan pedagogika va psixologiya yo‘nalishi talabalarini tanlab oldik. Boisi umumta’lim maktabi o‘quvchilariga milliy madaniyat, millatlararo bag‘rikenglik tushunchalari singdirilsa, jamiyatimiz uchun yetuk, fidoiy fuqarolar yetishib chiqishi ta’minlanadi.

Dunyo miqyosidagi o‘zgarishlar etnik renessans, muhojirlarning ko‘payishi, jamiyat hayotidagi millatlararo totuvlik va integratsion jarayonlarning kuchayishi ta’lim tizimiga ham ma’suliyat yuklaydi.[5, 199-bet] Chunki, kelajak avlodda etnomadaniyani shakllantirish bevosita ta’lim jarayoniga bog‘liq. Bir tomondan o‘quv-tarbiyaviy jarayonda talaba shaxsida etnik identivlik ya’ni

VOLUME 6, ISSUE 1, 2023

har bir insonning yakkaligi, o‘ziga xosligi shakllantiriladi, boshqa tomondan esa, millatlar o‘rtasida o‘zaro munosabatlarni rivojlantirishning takomillashtirilgan mexanizmi sifatida qaraladi. Talabalarda etnomadaniy kompetensiyani shakllantirish zamonaviy ta’limning eng muhim instrumenti hisoblanadi, bunda talabalar o‘z millati madaniyatini o‘rganadi, boshqa elat va millatlarning buyuk namoyondalari hamda madaniyati haqidagi bilimlarni o‘zlashtiradi.

Tadqiqotimizda talabalarda etnomadaniy kompetensiyani shakllantirishda quyidagi jihatlarga ustuvorlik berildi.



Oliy ta’lim jarayonida talabalar bilan ma’naviy – ma’rifiy tadbirlar tashkil etiladi, bunda asosan o‘zbek va boshqa xalqlarning madaniyati, urf-odatlari, milliy taomlari, kiyimlari, milliy o‘yinlar, milliy kino va teatlari namoyish etiladi. Mamlakatimizda nishonlanadigan “Navro‘z” milliy bayrami yaqqol misol bo‘la oladi, bunda talaba yoshlarimiz tomonidan turli millat vakillarining madaniyati namoyish etiladi. Natijada ular etnomadaniy kompetensiya elementlari shakllanadi. Ayniqsa talabalarda etnik tolerantlik va boshqa millat madaniyatiga hurmat hissini tarbiyalash dolzarb sanaladi. Ma’lumki yurtimizda 130 dan ortiq millat vakillari istiqomat qiladi, bu esa talaba-yoshlarni ko‘pmillatli xalqimiz qadriyatlarini anglashga va kelajakda pedagogik faoliyatida unga amal qilishga yo‘naltiradi.

Pedagogika va psixologiya ta’lim yo‘nalishi talabalariga “Etnopedagogika” fanini o‘qitishda qadimgi turkiy etnopedagogika manbalarida komil inson tarbiyaviy sifatlarining talqini. O‘zbek xalq pedagogik tafakkurining tarixiy taraqqiyot yo‘li, etnopedagogika manbalari tizimi va uning xilma – xilligi, maqollar, topishmoqlar, olqishlar, marosim folklori, qo‘shiqlar, dostonlar, og‘zaki drama va askiyalar tizimining pedagogik ahamiyati o‘rgatiladi. Keltirilgan mavzularni o‘zlashtirish uchun quyidagi metodik vazifalar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

1. Etnomadaniyat turlarini ijtimoiy va individual progress manbai sifatida qabul qilish va uni tan olishni shakllantirish.

VOLUME 6, ISSUE 1, 2023

2. Umumjamiyat va dunyohamjamiyatiga taalluqli bo‘lgan etnik o‘ziga xoslik, yaxlitlik imkoniyatlarini talabalar ongiga yetkazish.

3. Etnik madaniyatga oid bilim va tasavvurlarni kengaytirish hamda milliy-psixologik xususiyatlarni tushuntirish.

4. Turli xalqlar madaniyati va qadriyatlariga hurmat hissini tarbiyalash.

5. Millat vakillari bilan samarali muloqot qila olish ko‘nikmasini rivojlantirish, millatlar o‘rtasida yuz beradigan muammolarni tezkorlik bilan yechish malakasini shakllantirish.

Sanab o‘tilgan vazifalarni hal etishda, talaba-yoshlarni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga tayyorlash, millatlar madaniyati bilan mukammal tanishish talab etiladi.

Tadqiqotimiz davrida o‘rganilgan adabiyotlar va ilmiy manbalar tahlili natijalari asosida quyidagi etnomadaniy xususiyatlarni aniqlashtirdik.

1. Etnopedagogika fani o‘quv dasturlari mazmuniga insonparvarlik g‘oyalarini singdirish, turli xalqlar madaniyati, insonlar o‘rtasida birdamlik, o‘zaro hurmatda bo‘lish hissini shakllantirishga oid usul va shakllardan foydalanish.

2. Etnomadaniy kompetensiyani shakllantirish vositasi sifatida tillarni kelib chiqish tarixi, madaniyati va san’atidan foydalanish, talabalarning ijodiy potensiali va dunyoqarashini kengaytirish. O‘quv va tarbiyaviy ishlarda milliy tarbiya vositalaridan foydalanish.

3. Ta’lim mazmuniga milliy va dunyoviy madaniyat asoslarini kiritish. Turli millat xalqlarining bir-biridan ajratib turuvchi sifatlari haqida ma’lumot berish. Ularning umumiy komponentlarini aniqlash.

4. Shaxs xavfsizligini tarbiyalash, ya’ni shaxsiy tolerantlik etnomadaniy turfa xillikni anglash, ijtimoiy-qadriyatni rivojlantirish, hamkorlik faoliyatini tashkil etish, turli nizoli vaziyatlardan chiqishning xulq-atvor modelini yaratish, istak, boshqa odamlarning etnomadaniy ehtiyojlarini hisobga olish, o‘z xulq-atvorini nazorat qilish va boshqarish.

5. Talabalarda etnofora sifatlarini shakllantirish, ya’ni muayyan (o‘z millatini) etnik madaniyat, millat ruhiyatini tushunishi va targ‘ib qilishi.

6. Etnomadaniy bilim chegaralanmaydi ya’ni mamlakatning ijtimoiy-madaniy hayotiga tayangan holda, boshqa xalqlar madaniyatini o‘zlashtirishi. Oliy ta’lim muassasasi ijtimoiy-pedagogik tizimda yosh avlodni polietnik muhit bilan integratsiyalashni ta’minlashi lozim. Jumladan, etnomadaniy masalalar balki, dunyo miqyosida yashovchi turli millatlarning turmush tarzi, yashash sharoitini o‘rganishni ham ko‘zda tutadi. Ma’lumki butun dunyo miqyosida barcha davlatlar siyosatida millatlararo totuvlik g‘oyasi mavjud, globallashuv davrida mamlakatlar va xalqlarning madaniyati tobora rivojlanib bormoqda. Etnomadaniyat talabalarning shaxsiy qadriyatlari, o‘z millati tarixi, turmush tarzi haqida bilim, ko‘nikma va malakaga egaligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotimiz natijalari shuni ko‘rsatadiki, talabalarda etnomadaniy kompetensiyani shakllantirishda nafaqat uning shaxsi, xulq-avtori muhim o‘rin egallaydi, balki muayyan shart-sharoitlar, yashayotgan muhit ham ta’sir qiladi. ya’ni tashqi sharoit atrof-muhit, jamiyat, uni


VOLUME 6, ISSUE 1, 2023

atrofidagi insonlarning o‘zaro munosabati va faoliyati, ichki esa, talabaning emotsional holati, hayotiy tajribalari, qadriyati, o‘z-o‘ziga munosabati.

Keltirilgan shart-sharoitlar shaxs xulq-atvori, hayotiy strategiyasi va maqsadlarini amalga oshirilishiga xizmat qiladi. Yosh avlodning ijtimoiy ongida hurmat, ehtirom shukuhini tashkil etsa, bu muqaddas qadriyatni ijtimoiy hayotda sodir bo‘layotgan barcha o‘zgarishlarga qaramay, bu merosdan mukammal foydalanishni, uni yanada taraqqiy etishi uchun barcha imkoniyatlarni amalda qo‘llashni taqozo etadi.

Talabalarda etnomadaniy kompetensiyani shakllantirishda emotsional, bilish faoliyati va xulq-avtor kabi omillar ta’sir qiladi.

Ularni quyidagi chizmada keltiramiz (qarang: 2-rasm):



2-rasm. Talabalarda etnomadaniy kompetensiyani shakllantirish omillari

Demak, oliy ta’lim muassasalari pedagoglariga ham ma’suliyat yuklanadi, ular etnomadaniyatning ilmiy, amaliy, pedagogik, psixologik, jihatlarini chuqur anglagan holda talabalarni ma’lumotlar bilan tanishtiradi. Millat madaniyatini targ‘ib qiluvchi ilg‘or pedagogik tajribalar “4+2” amaliyotida tahlil qilinib, talabalarning munosabatlari muhokama qilinadi. Shuningdek, talabalar bilan professor - o‘qituvchilar hamkorligida mualliflik loyihalari va texnologiyalar ishlab chiqiladi.

Etnomadaniy kompetensiyani shakllanishi natijasida talabalar xalqimizning tarixiy shakllanishi, uning ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyot bosqichlari, milliy madaniyatimizning o‘tmishda qo‘lga kiritgan yutuqlari, elat, qavm, millat tushunchalarining mazmun va mohiyatini to‘la o‘zlashtiradi. O‘tmishda va hozirgi kunda muayyan darajada shakllanib va taraqqiy etib kelayotgan milliy madaniyatimizning tadrijiy-tarixiy jarayonini yosh avlodga yetkazish malakasiga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

Qonun hujjatlari

VOLUME 6, ISSUE 1, 2023

1. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi 19-modda 2023-yil 30-aprel. https://lex.uz/docs/-6445145
2. Mirziyoyev Sh. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. T.:2019 yil 8 oktyabr. PF-5847-son farmon
3. Sh.Mirziyov. Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida.T.: PF-5876-son
4. Sh.Mirziyov. Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida.T.: 2017-yil 19-may. PF-5046-son farmoni

Asosiy adabiyotlar va maqolalar

5. Dj. Banks. Educating citizens in a multicultural society. New York and London : Teachers College Press, 2007.-199 p
6. M.Sobirova. Etnomadaniyat fanidan o'quv uslubiy majmua. T.: 2012-102 b. 47 bet]
7. N.Jo'rayeva Etnomadaniyat va milliy g'oya mushtarakligi. Buxoro.: 2018.-64 b
8. Turdiyev N.Sh., Asadov Y.M., Akbarova S.N., Temirov D.Sh. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti, T.: 2015 - yil B 160.

Intenet manzillari

www.Ziyo.net

www.Ilm.uz

www.Lex.uz

www.pedagog.uz

WORDLY
KNOWLEDGE